

## O'QITUVCHINING DARS JARAYONIGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI SHAKLLANTISH USULLARI

Baratova Nasiba,

*Qashqadaryo viloyati PMM pedagogika-psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqola o'qituvchining darsga tayyorgarlik jarayoni qanday mezonlar asosida amalga oshirilishi, bu jarayonning o'ziga xos jihatlari xususida bo'lib, ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish usullari hamda strategiyalari ko'rib chiqiladi. Shu jarayonda pedagogga dars oldidan qo'yilgan talablar haqida atroflicha mulohazalar keltirildi.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi shaxsi, metodlar, strategiyalar, tahlil, rivojlanish, samaradorlik, pedagogik talablar, dars samaradorligi, dars bosqichlari.

**Abstract.** The article discusses the criteria on which the teacher's preparation for the lesson should be carried out, the specific aspects of this process, and considers the methods and strategies for the formation and development of critical thinking in the educational process. In this process, detailed considerations were made about the requirements placed on the teacher before the lesson.

**Keywords:** teacher personality, methods, strategies, analysis, development, effectiveness, pedagogical requirements, lesson effectiveness, lesson stages.

**Аннотация.** В статье рассматриваются критерии, на основе которых должна осуществляться подготовка учителя к уроку, специфические аспекты этого процесса, а также методы и стратегии формирования и развития критического мышления в образовательном процессе. В рамках этого процесса подробно рассматриваются требования, предъявляемые к учителю перед уроком.

**Ключевые слова:** личность учителя, методы, стратегии, анализ, развитие, эффективность, педагогические требования, эффективность урока, этапы урока.

**Kirish.** Ta'lim sifatini oshirish, dars jarayonini samarali tashkil etish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Pedagog uchun faqat amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qiladi. Bugungi kun pedagogi jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchan, har qanday vaziyatda ta'lim-tarbiya jarayonida yangi usul va metodlarni o'z faoliyatida qo'llay oladigan, yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lmog'i lozim. Dars samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rish sifati bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur jarayonga puxta tayyorgarlik ko'rgan o'qituvchi o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta'sir etadi, bu vazifani tez va oson, natijali amalga oshirishga erisha oladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida an'anaviy dars o'tish usuli 6 bosqichda amalga oshiriladi. O'qituvchilar ushbu dars bosqichlari (etaplari)ning mazmun-mohiyati, ulardan ko'zlangan maqsadni yaxshi anglay olishlari va ularning o'ziga xos vazifasi, shuningdek, belgilangan vaqt ko'rsatkichlarini bilishlari maqsadga muvofiqdir.

1-bosqich - darsni tashkil qilish (tashkiliy qism).

2-bosqich - o'tilgan va uyga berilgan mavzuni so'rash va takrorlash.

3-bosqich - yangi mavzuni tushuntirish.

4-bosqich - yangi mavzuni mustahkamlash, amaliy va mustaqil ishlar bajarish.

5-bosqich - darsni yakunlash va baholash.

6-bosqich uyga vazifa berish jarayonidir.

Ma'lumki, darsni kuzatuvchilar (direktor, direktor o'rinbosarlari, metod birlashma rahbarlari, o'qituvchilar) darslarni tahlil qilishda dars tashkilotchisining ushbu bosqichlarga qay darajada rioya qilganligini nazoratga oladilar. Shuningdek, bu bosqichning yana bir turi borki, u eng avval amalga oshiriladi va boshqa etaplarni amalga oshirishda tayanch vazifasini bajaradi.

Birinchilardan bo'lib amalga oshirilishi ko'zda tutilgan mazkur jarayon "Darsga tayyorgarlik" bosqichi sanaladi. Quyida ushbu muhim bosqichning asosiy talablari xususida fikr yuritamiz. Darsga puxta tayyorgarlik ko'rish bir necha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi:

a)dars rejasi va maqsadini belgilash;

b)o'quv materiallarini o'rganish va tahlil qilish;

c)dars metodikasini tanlash; d)dars uchun zarur bo'lgan materiallar va texnologiyalarni tayyorlash;

e)darsning borishini rejalashtirish. Qolaversa, o'qituvchining dars jarayoniga tayyorgarligi bir qator omillarga bog'liq bo'ladi.

O'quvchi darsda faol ishtirokchi, darsning asosiy markazi ekanligini his qilsagina, darsga qiziqish bildirishi mumkin. Buning oqibatida, sertifikat olgan o'quvchilarda oldinga siljish kuzatilmaydi, aksincha, orqaga qarab ketadi. Hatto sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilar darslarda sinfdoshlari va o'qituvchiga xalaqit berishni boshlashadi. Bu o'qituvchiga dars o'tish uchun qiyinchiliklar tug'diradi. Bu kabi muammolarni hal qilish esa o'qituvchidan pedagogik mahorat talab etadi.

**Tahlil va natijalar.** Nega darslar guruhlariga bo'lib o'qitiladigan fanlarga kiradigan o'qituvchilar uchun guruhlashda erkinlik mavjud emas? Masalan, guruhlashda ham muammolar mavjud. Bunda, asosan, jurnalga yozilgan ro'yxat bo'yicha birdan o'n ikkigacha bo'lgan raqamdagi o'quvchilar bir guruh, 13 dan 24 gacha bo'lgan raqamdagi o'quvchilar yana bir guruhga bo'linadi. Bu bir necha yillardan beri o'zgarishsiz qolmoqda. Raqamlar bo'yicha guruhlanganda o'quvchilar bilimiga qarab emas, familiyasiga qarab guruhlanadi.

Pedagogika — ta'lim va tarbiya qonunlari, metod va usullari haqidagi fan. U ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalarini, ularning shaxs taraqqiyoti va jamiyat hayotidagi o'rnini ochib beradi. Pedagogika va psixologiya fanlarining insonga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi hamkorligi chuqur tarixga ega. O'z davrida mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy pedagogika barkamol shaxs tarbiyasining rejasini ishlab chiqish uchun inson haqidagi barcha fanlarning yutuqlariga tayanishi kerakligi, bu fanlar orasida esa psixologiya markaziy o'rin egallashini ta'kidlagan edi. Bolaga ta'lim va tarbiya berishga oid vazifalarni hal etishda pedagogika qanday qilib ta'lim - tarbiya berish kerakligini aytsa, psixologiya nima uchun aynan shunday qilish kerakligini aniqlaydi. Masalan,

pedagogika maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va tarbiyasida o'yin usullaridan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi. Psixologiya esa buning sababi ushbu yosh davrida o'yin yetakchi faoliyat ekanligini tushuntiradi.[1]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'lumki, iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish uchun zarur sharoitlarni yaratish turli mamlakatlarda milliy elitaning shakllanishiga yordam beradi, fan, san'at yutuqlari va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Bu iqtidorni yuzaga chiqarish faqat alohida shaxs uchun, balki jamiyat va uning taraqqiyoti uchun zarurdir. Ushbu eng muhim strategik milliy vazifaning ahamiyati bolalar iqtidorining nazariy (tushunchalari, turlari, namoyon bo'lish shakllari va boshqalar) va amaliy jihatlarini (iqtidorli bolalar bilan ishlashning tashkiliy shakllari) tadqiq qilishni chuqurroq o'rganishga undaydi. Iqtidor–inson ruhiyatining butun hayoti davomida tizimli rivojlanadigan psixikaning imkoniyati bo'lib, insonning boshqalarga nisbatan noan'anaviy va favqulodda natijalarga erishishini ta'minlaydi.

O'quvchilarni bilim darajasi bo'yicha guruhlariga ajratish ta'lim jarayonida turli psixologik va pedagogik ta'sirlarga ega bo'lishi mumkin. Bu yondashuvning ijobiy va salbiy jihatlari bor. Quyida ushbu uslubning o'quvchi psixologiyasiga ta'siri haqida batafsil ma'lumot beramiz.

1. Ijobiy jihatlari: Moslashuvchan ta'lim. O'quvchilar o'z bilim darajasiga mos tezlikda ta'lim olishadi. Kuchli o'quvchilar chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lsa, sustroq o'quvchilar asoslarni puxta o'zlashtirishlari mumkin. Samaradorlik oshadi. Kuchli o'quvchilar o'zlarini yanada sinovdan o'tkazishlari, murakkab topshiriqlarni bajarishlari mumkin, bu esa ularga rivojlanish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa qo'shimcha e'tibor va yordamsiz qolmaydi. Raqobat muhiti pasayadi. Har xil darajadagi o'quvchilar bir guruhda bo'lganda, sustroq o'quvchilar o'zlarini bosim ostida his qilishi mumkin. Alohida guruhlash bu bosimni kamaytiradi va ular o'zlariga nisbatan ishonchliroq bo'lishadi.

2. Salbiy jihatlari: Motivatsiyaning pasayishi. Kamroq o'zlashtiradigan o'quvchilar bir guruhga tushganda, ular o'zlarini "orqada qolgan" deb his qilishlari, bu esa o'qishga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi mumkin. Ijtimoiy ajralish. Har xil darajadagi o'quvchilar aralash bo'lsa, bir-biridan o'rganish imkoniyati bo'ladi. Kuchli o'quvchilar boshqalarga yordam berib, mavzuni yanada mustahkam tushunishi mumkin, sustroq o'quvchilar esa ularga ergashib, o'z bilimini oshiradi. Agar guruhlar ajratib qo'yilsa, bu imkoniyat kamayadi. O'z-o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishi. Kamroq o'zlashtiruvchi guruhdagi o'quvchilar o'zlarini past baholashi, "biz kuchsizmiz" degan fikrga kelishi mumkin. Bu ularda ruhiy bosimni oshiradi va bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni kamaytirish ehtimoli bor.

3. O'quvchilar o'rtasidagi psixologik holat: A'lochi o'quvchilar. Ular o'z guruhlarida bilimlarini yanada rivojlantirishi mumkin, lekin ba'zan o'zini haddan tashqari mukammal hisoblab, ortiqcha mag'rurlik hissiga berilishi yoki sustroq o'quvchilarni mensimasligi mumkin. O'rta va past o'zlashtiruvchi o'quvchilar. Ular guruhda sustroq

muhitda o'qish natijasida o'zlari ham past motivatsiya bilan qolib ketishlari mumkin. Kuchli o'quvchilar bilan birga bo'lganda esa, ularning harakati kuchayishi va tezroq o'sishi mumkin.

4. Qanday yechim taklif qilinishi mumkin? Aralash guruhlar: Har xil darajadagi o'quvchilar bitta guruhga qo'shilganda ular bir-biridan o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Katta tajribaga ega bo'lgan o'quvchilar boshqalarga yordam bera oladi. Differensial yondashuv: O'qituvchi har xil darajadagi o'quvchilarga mos topshiriqlar berishi kerak. A'lochi o'quvchilarga chuqurlashtirilgan topshiriqlar, sustroq o'quvchilarga esa asosiy bilimlarni mustahkamlash uchun qo'shimcha yordam taqdim etilishi lozim. O'z-o'zini baholash va ishonchni oshirish. Kamroq o'zlashtiruvchi o'quvchilarni motivatsiya va kichik g'alabalar berish, rag'batlantirish va jamoaviy topshiriqlar orqali rivojlantirish foydali bo'ladi. O'quvchilarni bilim darajasiga qarab ajratish ba'zan samarali bo'lishi mumkin, ammo bu uslub noto'g'ri qo'llanilsa, sustroq o'quvchilarning motivatsiyasini pasaytirishi, a'lochilarning esa haddan tashqari o'ziga ishonib ketishiga olib kelishi mumkin.

**“Videotopishmoq” metodi.** So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televedeniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, videolar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar alohida ta'lim jarayonida turli axborot vositalarida o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: -o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi; -o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar; -jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar; -o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.

**“Zakovatli bilimdon” metodi.** Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli bilimdon” metodi o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatni yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o'quvchilarning tafakkur tezligi aniqlanadi. Ballarning belgilanishi o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Metod o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llnilishi mumkin.

**“Sur'atli testlar” metodi.** Barcha materiklar, tabiat zonalari, tabiat mintaqalari, tabiiy geografik o'lkalar, tabiiy geografik okruglarning hayvonot dunyosi hamda o'simlik dunyosi mavzusini o'qitishda va uni mustahkamlashda suratli testlardan foydalanilsa,

maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur testlar asosida turli sinflarga moslab suratli testlar tayyorlash mumkin. Suratli testlar bolalar fikr doirasini kengaytirishga, fanga qiziqishini ortishiga yordam beradi. Suratli testlardan olgan bilimlarni geografiya to'garaklarida mustaqil ishlash orqali ham mustahkamlash mumkin. Suratli testlardan foydalanish oddiydan murakkabga tomon olib boriladi. Dastlab, suratli kartochkalardan foydalansa ham bo'ladi, bu kartochkalardagi suratlariga qara, o'quvchilar o'zi savol tuzadi va javob tayyorlashadi.

**Xulosa.** O'qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ta'lim sifatini oshirishda asosiy omillardan biridir. Dars oldidan aniq reja tuzish, samarali metodlarni tanlash va texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni yaxshilanadi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'z ustida doimiy ishlashi, yangi pedagogik yondashuvlarni o'rganishi va amaliyotga tatbiq etishi lozim. Faqat shu yo'l bilangina u haqiqiy professionallikka erishishi va o'quvchilarga samarali ta'lim bera olishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi Z. Nishanova, G. Alimova
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Qarshi.: Nasaf, 200. – 80b.
3. Izmailova E. I. "Fikrlash va eslashni o'rganish (TRIZ texnologiyasi)" Moskva, ARKTI nashriyoti, 2010 y.
4. Tojiyev M., Ziyomhammadov B. Milliy pedagogik texnologiyaning ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq'i va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni. Monografiya. G'T.: "Mumtoz so'z". 2010., -214 b.
5. Yuldoshev., S.Usmonov "Pedagogik texnologiya asoslari".
6. Tolipov O'., Usmonboyev M. "Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari"
7. Nurmonov, A.Ikromov, F.Boynazarov. "Yangi pedagogik texnologiya asoslari" (Interfaol darslar)